

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TILSHUNOSLIKDA TIBBIYOT SOHASIGA DOIR TADQIQOTLAR TADQIQI

Karimov Izzatulla Kamoliddin o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti assistenti

Email: izzatullakarimov2944115@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2553-2714

Karimova Baxriniso Islombek qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Email: baxrinisokarimova1997@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikda tibbiyot sohasiga doir olib borilgan tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda tibbiyot sohasida tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil etildi.

Kalit so'zlar: metafora, mavzuviy guruhlanish, Tib qonunlari, tibbiy diskurs, tibbiy termin, semantika, metaforik modelashtirish, evfema.

RESEARCH ON MEDICAL RESEARCH IN LINGUISTICS

Karimov Izzatulla Kamoliddin o'g'li

Assistant at Andijan State Medical Institute

Karimova Baxriniso Islambek qizi

Independent researcher at Andijan State Medical Institute

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of linguistic research conducted in the field of medicine. The study examines scientific investigations carried out by linguists in the medical sphere.

Keywords: metaphor, thematic grouping, The Canon of medicine, medical discourse, medical term, semantic, metaphorical modelling, euphemism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i16/n14>

Tibbiy terminlar diskurs tahlili leksikaning tashqi ta'sirlarga eng sezgir qismidir. Terminlar diskurs tahlilida jamiyatning tilga ta'siri eng yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa tibbiy manbalar, shifokor-bemor munosabatlaridagi munosabatlar, davlatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda, ularning shakllanishini tahlil qilishda, sivilizatsiya turlarini aniqlashda, shuningdek, madaniy, ilmiy va texnik salohiyatini belgilashda e'tiborga olinadi.

So'nggi yillarda tilshunoslikdagi tibbiy terminlarga oid tadqiqotlar keng o'rganilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda D.X.Bozorova, M.Abduraxmonova, B.T.Suyunov, B.Z.G.afurov, M.Navruzova, Feruza Qosimova, F.I.Abdulxairova, L.A.Sultonova, S.K.Yorova, A.Xusanov, Z.Mirahmedovalar ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminlar va tibbiy diskurs mavzulari yuzasidan ilmiy ishlar olib borgan olimlardan hisoblanadi.

Ushbu ilmiy izlanishlar o'zbek tilshunosligida 1967-yildan boshlangan hamda lingvokulturologiya, lingvopragmatika, lingvopoetika kabi tilshunoslik sohalari qamrab olingan holda tadrijiy shakllangan[1; B.495.]. O'zbek tilshunosligidagi tibbiyot terminologiyasi yuzasidan amalga oshirilgan ilk tadqiqot D.X.Bozorovanning «Odam tanasi a'zolari nomlarining

semantikasi va ular asosida yasalgan turkiy tillardagi so'zlar»[2; B.27.] nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishda qadimiy turkiy tillardagi adabiyotlarda ifodalangan tana a'zolari nomlari, ya'ni somatizmlar leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Boshqa bir olim A.Xusanov esa "O'zbek tilida kasallik va simptom nomlari" mavzusida yozilgan dissertatsiyasida tibbiyot terminologiyasida katta hajmni egallovchi kasalliklar hamda ularning belgilarini ifodalab beruvchi terminlarni obyekt sifatida tanlab tadqiq qilgan. Unga muvofiq, 14 xil usuldagi yasalgan klinik terminlar aniqlangan. Ushbu soha terminlarining asosiy tashqi boyish manballari arab, fors, tojik hamda rus tillari ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari tadqiqotda kasallik va ulardagi belgilarga ishora qiladigan leksemalarning aksar qismi -ma, -cha, -sh, -ish, -la, -lash, -lik, -simon kabi qo'shimchalardan hosil bo'lishi dallillandi.

O'zbek tadqiqotchisi F.I.Abdulxairova "Tibbiyot terminlarini metaforik modellastirishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli monografiyasi ana shunday dolzarb ilmiy izlanishlarning biridir. Ushbu monografiyada zamonaviy tibbiy terminlar bilan bir qatorda sohaga oid tarixiy asar "Tib qonunlari" tahlili ham o'z ifodasini topgan. Shu bilan bir qatorda monografiyada metaforalar tadqiqiga katta e'tibor qaratilgan. Tibbiyot sohasida hamda kundalik nutqda faol ishlatiladigan ko'plab metaforalar o'zaro taqqoslash maqsadida tadqiqetilgan. Ilmiy uslub matnlarida metafora hamda metaforik o'tkazishni barcha turlari taqdim etilishi, baholovchi-ekspressiv metaforalar esa ilmiy matnlarda deyarli uchramasligi aniqlangan.

Tilshunoslikda tibbiyot sohasiga doir yana bir tadqiqot Z.Mirahmedovanning "O'zbek tilining anatomik terminologiyasi hisoblanib, mazkur ishda terminlar etimologiyasi, morfologiyasi, semantikasi tadqiqotiga bag'ishlangan. "Yahlit bir terminologik sistemani tashkil etuvchi anatomik terminlar, o'z navbatida, bir qancha mavzu guruhlariga bo'linadi. Terminlarni mavzu guruhlariga bo'lib o'rganish muayyan terminologik sistemaning, bu o'rinda o'zbek anatomik terminologiyasining butun lug'aviy boyligini, uning shakllanish va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi."

B.T.Suyunov "Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi nomli doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tili tibbiy leksik birliklarini semantik maydon asosida tekshirdi, terminlar o'rtasidagi gipo-giperonomik, partonimik munosabatlarni aniqladi, ona tilimizdagi o'rganilayotgan soha terminlarining semantik paradigma asosidagi kollakatsiya usulidagi etimologik jihatlarini ochib berdi. Olim o'zbek tilshunosligida ilk bor tibbiyot sohasidagi lakunalarning shevadagi asoslarini to'pladi va natijada o'zbek tibbiy terminlari tezaurusi ma'lumotlar bazasining lingvisitk ta'minoti yaratilishiga asos bo'ldi.

Biz ham o'z tadqiqotimiz davomida kardiologiya sohasida qo'llaniladigan ingliz tilidan tarjima qilinish jarayonida milliy ekvivalenti shakllanmagan lakunalarni tahlil etdik. Bunga misol qilib *screening*-kasallikni erta aniqlash maqsadida qilinadigan tekshiruv (o'zbek tilida esa profilaktik tekshiruv kabi ziohli tarjima), *bypass*-qon tomir tiqilish holatida yangi yo'l hosil qiluvchi operatsiya o'zbek tilida shuntlash operatsiyasi deyilsada *bypass* terminni to'liq semantik jihatni ifodalay olmaydi, *stent*- moslama o'zbek tilida ekvivalenti mavjud emasligi bois transliteratsiya yo'li bilan o'zlashgan. O'zbekcha kardiologik terminlar asosan ilmiy standartlashgani, yunon hamda lotincha ildizga asoslanganligi sababli sof lakunalarni aniqlanmadi. Faqatgina xalq tili ya'ni ommaviy diskursdagina mavjud bo'lgan bir nechta lingvoma'daniy lakunalar mavjudligi aniqlandi. Bular- yurak o'ynashi, yurak siqilishi kabilardir,

ularning ingliz tilida tarjimasi bor bo'lsada millatga xos xalqona bo'yoqdorligi, madaniy qo'llanishidagi semantik jihat to'liq mos kelmaydi.

Shu o'rinda tahlil jarayonida F.Abdulxairova asosan kardiologiya sohasi terminologiyasining "Tib qonunlari"da bayoniga, B.Suyunov ushbu asardagi tibbiy tushunchalarga, xususan dori nomlariga e'tibor qaratgani hamda *mitridus*- murakkab tarkibga ega dori(yaratuvchi nomi bilan bog'liq), *taryaq*-zaharlarga qarshi murakkab tarkibga ega dori, *salisa*- har tomondan manfaatli dori kabi tibbiy atamalar aniqlandi. Ushbu ilmiy tadqiqot o'zbek terminologiyasi taraqqiyot ilmiy dalillar bilan tahlil etilgan hamda o'zbek tili terminologiyasining nazariy asoslarini yaratishda, tibbiy terminlar lingvistik ta'minotini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy ahamiyatga egadir.

S.Yorova so'z, tushuncha hamda konseptlar borliqqa doir bilimlarni xotirada tizimlashtirgan holda saqlash hamda assosiativ uyg'unlikda jonlantirishdan bilan bir qatorda, ularni geshtal't, freym, ssenariy (skript), konseptosfera kabi kognitiv tuzilmalarga tayanib voqelikni idrok qilish, hatti-harakatlarni rejalashtirish kabi xususiyatlarga ham egadir.

Keyingi tilshunoslikda tibbiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bera olgan tadqiqotlardan biri N.G'aybullayevaga tegishlidir. "O'zbek tilida evfemalar (tibbiy davr nashr materiallari asosida)" mavzusidagi dissertatsiyada soha leksik birliklarining lingvokulturologik jihat o'rganilgan. Tadqiqotda tibbiy evfemizlarning leksik-grammatik jihatlari, turli jins vakillari muloqotidagi o'ziga xos voqelanish tarsi, o'zbek xalqiga xos qo'llanilishi tadqiq etilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qosimova F.X. O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili. FarDu.Ilmiy xabarlar. Vol.30,3,2024. 488-495b.
2. Базарова Д.Х.. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках: автореф. дис.канд. филол. наук. Ташкент. 1967. – 27 с.
3. Хусанов А. Название болезней и их симптомов в узбекском языке: дис.канд.филол.наук. Ташкент. 1982.
4. Abdulxairova F.I. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari,- monografiya, Toshkent,-2024. B 9.
5. Abdulxairova F.I. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari,- monografiya, Toshkent,-2024. B 21.
6. Mirahmedova Z. (1994). O'zbek tilining anatomik terminologiyasi: filol.fan.nomz.dis. Toshkent. 1994.
7. Suyunov B.T.Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi, avtoreferat,- Toshkent, 2023. B 10.
8. Yorova S. Ingliz va o'zbek tillarida tibbiy nutqning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari,monografiya, Fan bulog'i. Samarqand.-2025. B34.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.